

**"TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL USLUBLAR VA
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH"**

Mamadiyorov Jamol Baxodirovich

Oriental universiteti pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KUCHIMOVA RASHIDA ERMAMA QIZI

Oriental universiteti magistranti

Anotatsiya Mazkur tezisda ta'lif jarayonida interfaol uslublar va texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu metodlar o'quvchilarining bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Interfaol yondashuvlar ta'lif sifati va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Ta'lif jarayoni, interfaol uslublar, pedagogik texnologiyalar, ta'lif sifati, innovatsion yondashuv, klaster, debat.

Аннотация В данном тезисе анализируется эффективность использования интерактивных методов и технологий в образовательном процессе. Эти методы оказывают положительное влияние на процесс обучения учащихся. Интерактивные подходы способствуют повышению качества и эффективности образования

Ключевые слова: Образовательный процесс, интерактивные методы, педагогические технологии, качество образования, инновационный подход, кластер, дебаты.

Annotation This thesis analyzes the effectiveness of using interactive methods and technologies in the educational process. These methods positively influence students' learning experiences. Interactive approaches contribute to improving the quality and efficiency of education.

Keywords: Educational process, interactive methods, pedagogical technologies, quality of education, innovative approach, cluster, debate

KIRISH

Bugungi kunda ta'lif tizimida zamonaviy texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy o'qitish metodlari o'rniga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarining faolligini oshirishga, mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada interfaol uslublarning mohiyati, ularning ta'lif jarayonidagi o'rni va samaradorligi ko'rib chiqiladi.

O‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan interfaol uslublarning ta’lim jarayonidagi o‘rniga oid bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Xususan, N. Xodjayev interfaol metodlarning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlagan bo‘lsa¹, D.Q Inoyatova zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning² samaradorligi haqida fikr bildirgan. Shuningdek, Sh.R Xasanova o‘z tadqiqotlarida interfaol metodlarning o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan.³

Shu bilan birga, interfaol usullarning joriy etilishi pedagogik jarayonni yanada jonlantirish va o‘quvchilarining amaliy bilmalarini oshirishga imkon beradi. Interfaol ta’lim shaxsiy yondashuvni kuchaytirib, har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, pedagoglar ushbu usullarning afzalliklarini inobatga olib, ularni dars jarayoniga keng tatbiq etishlari lozim.

ASOSIY QISM

Interfaol uslublar ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutib, o‘qitish jarayonini jonlantirish va o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu uslublar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

O‘quvchilarining faolligini oshirish – ular dars jarayonida faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishadi;

O‘zaro hamkorlik – guruh yoki jamoaviy ishlar orqali o‘quvchilar bilim va tajriba almashadilar;

Muammoli ta’lim – o‘quvchilar real hayotga oid muammolar ustida ishlaydi va mustaqil yechimlar topishga harakat qiladi;

Axborot texnologiyalaridan foydalanish – zamonaviy raqamli resurslar dars jarayoniga joriy qilinadi.

Interfaol uslublarni qo‘llashda quyidagi texnikalar samarali hisoblanadi:

“Baliq skeleti” texnikasi;

“Klaster” metodi;

“Aqliy hujum”;

“Debatlar” va boshqa zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol uslublardan foydalanish o‘quvchilarining darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

XULOSA

Interfaol uslublar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarining mustaqil

¹ <https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/1326>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-innovatsion-yondashuvlar>

³ <https://abiturtest.uz/mavzular/interfaol-metodlarning-talim-va-tarbiya-jarayonidagi-orni-va-imkoniyatlari/>

fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim jarayonida interfaol yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Bundan tashqari, interfaol ta’lim shunchaki vosita emas, balki o‘qitish jarayonida chuqur anglangan yondashuvdir. Pedagoglar nafaqat texnikani qo‘llashi, balki o‘quvchilarni qiziqtirish va ularning fikrlash faoliyatini rag‘batlantirish uchun innovatsion metodlarni ishlab chiqishlari ham muhim ahamiyatga ega.

Interfaol ta’lim vositalari o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini oshirib, ularni mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov O. "Interfaol ta’lim metodlari va ularning qo‘llanilishi". Toshkent, 2017.
2. Safarova G. "Pedagogik texnologiyalarning zamонавиј rivojlanish tendensiyalari". Samarqand, 2018.
3. Nurmatov B. "Innovatsion ta’lim metodlari: nazariya va amaliyot". Buxoro, 2019.
4. Ismoilova D. "O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish". Farg‘ona, 2020.
5. UNESCO. "Interactive Teaching Strategies for the 21st Century". Paris, 2021.
6. Johnson D.W. & Johnson R.T. "Cooperative Learning: Theory and Practice". New York, 2022.